

## RUBOB MUSIQIY CHOLG’USI

### *A’zamov Hazratali Otaxon o’g’li*

*Farg’ona ixtisoslashtirilgan maqom maktab internati o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola rubobning prima, alt, metso-soprano turlari, rubob musiqiy cho’lg’usining yaratilishi va rivojlanishi, hamda hozirgi kundagi o’zbek rubobining tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** musiqa, cholg’u, rubob, milliy cholg’ular, madaniyat, surnay, chang.

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о видах рубоба прима, альт, меццо-сопрано, создании и развитии музыкального инструмента рубоб, а также о строении современного узбекского рубоба.

**Ключевые слова:** музыка, инструмент, рубаб, национальные инструменты, культура, труба, пыль

**Annotation:** This article provides information about prima, alto, mezzo-soprano types of rubob, the creation and development of the rubob musical instrument, as well as the structure of modern Uzbek rubob.

**Key words:** music, instrument, rubab, national instruments, culture, trumpet, dust.

### **Introduction:**

Ma’lumki musiqiy cholg’ular xalqimizning moddiy hamda ma’naviy boyligidir. Chunonchi, har bir xalq o’z milliy merosi, davrlar osha yuzaga kelgan an’alarini milliy oxanglar orqali tarannum etuvchi va xalqning milliy ma’naviyatiga xos yaratilgan amaliy san’at na’munalari orqali ularga mos keluvchi cholg’u asoboblariga egadirlar. O’zbek musiqiy cholg’ular olami bu xususida manan va moddiy nuqtaiy nazardan boy xamda rang- barang ekanligini e’tirof etib o’tish joizdir. Qolaversa, qaysiki xalqning ma’naviyati yuksak bo’lsa uning tarixi va unga mos merosi ham ulkandir. O’zbek xalqining musiqiy madaniyati milliy cholg’ularga boy bo’lib, tanbur, dutor, g’ijjak, nay, qo’shnay, surnay, chang, qonun, ud, rubob, doira va nogora kabi cholg’ular o’zining mukammalligi bilan mohir ijrochilar amalyotida munosib o’rin topgan. Chunki har bir cholg’u o’zining shakillanish tarixi, ijro imkoniyatlari, betakror, jozibali sadolanishi va muxlislariga ega. Ularning barcha siru- sinoatlarini ilmiy nazariy tadqiq etish va yosh avlodga yezkazish har bir murabbiyning muqaddas burchidir. Qay etish joizki, cholg’ular, cholg’u musiqasi hamda ijrochiligi azal-azaldan bir-birini to’ldirib, rivojlanishiga va takomillashishiga zamin yaralib kelgan. Cholg’ularning ilk tasvirlari qadimiy odamlarning istiqomat qilgan joylari-g’orlarda, qoya toshlarda o’yib chizilgan, imoratlarning peshtoqlari, saroylarning devoriy

suratlari, spol idishlarga o'yib chizilgan sur'atlarda va terrakota haykalchalarida aksini topgan. O'rta Osiyo va O'zbekiston hududlarida Afrosiyob, Dalvarzin tepa (Surxondaryo), Varaxsha (Buxoro), Ayritom, Zartepa, Qoy qirilgan tepa va Qozi qirilgan tepalar (Kohna Urganch), Panjikent kabi qadimiy joylar qazilmalaridan topilgan chizma sur'at va haykalchalar shular jumlasidandir. O'rta asr va undan keyingi davrlarda yaratilgan musiqa taraqqiyotida cholg'u asboblari va ularda ijro etiladigan musiqa asarlari haqida ko'p ma'lumotlar bor. O'rta Osiyoda yashagan buyuk olim Abu Nasr al-Forobiyning Musiqiy risolasida shunday deb yozgan edi. Kishi ovozigga yaqin tovush chiqaradigan cholg'u asboblari Rubob, nay, surnaydir; ular kishi ovozigga juda yaxshi taqlid qiladi, cholg'u asboblari ashulaga jor bo'ladi, ashulaning boshlang'ich musiqasini va uning orasidagi cholg'u qismini xosil qiladi deydi. Biz O'rta Osiyo xalqlari, o'zbeklar, tojiklar, uyg'urlar orasida qadimiy va ommalashgan cholg'ulardan biri rubob cholg'usi haqida so'z yurutamiz. Rubob cholg'usining yaralishi va kelib chiqishi haqida aniq ma'lumot bo'lmasada, bazi bir manbaalarda keltirilgan ma'lumotlarga suyangan xolda o'rganamiz. Qadimiy risolalarda, qo'lyozmalarda, asarlarda yozilishicha rabob, rebab, rubob cholg'usi haqida ko'plab fikrlar yuritilgan.

#### **Materials and Medhods:**

Cholg'u asboblarning Forobiy ta'riflagan vazifasi xozirgi davrga qadar saqlanib kelinmoqda. Abu Nasr Muhammad, Ibn Muhammad Ibn Uzlug, Ibn Tarxon Farobiy 873 yilda Ariz Suvi Sirdaryoga quyiladion yerdagi Farob degan joyda dunyoga keladi. Farobiyning musiqa qo'shgan xissasi beqiyosdir. U yangi musiqa asbobi yaratgan va mohir sozanda, bastakor, yirik musiqa nazaryotchisi bo'lgan. U ixtiro qilgan musiqa cholg'usining nomi, manbaalarda turlicha qonun, g'ijjak, ud deb ataladi. Forobiyning musiqa asarlari asosida Kitobul musiqiy al-kabir (Musiqa haqida katta kitob) aloxida ahamiyatga ega. Bu kitob mashxur Sharqshunos olim D. Erlange tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinib Arab musiqasi turkumida nashr etilgan. Asar muqaddima va uch bo'lakdan iborat, ikkinchi kitobida Ud, Tanbur, Nay, Rubob kabi cholg'ularning torlari va diapazoni haqida yozadi. Qadimiy sozlardan Rubob arablarda kamonli cholg'u bo'lib, O'rta Osiyoda chertib yoki tirnab ijro etilgani aytib otilgan. Farobiyning ilmi haqida G'arb olimlari ham juda ko'p ijobiy so'zlar aytib, uning yetuk olim ekanligiga va Yevropada musiqa ilmining rivojlanishida katta ta'sir ko'rsatganligini ta'kidlaganlar. K. Sarton Farobiy musiqashunoslik sohasida ham o'z davrining Yevropa nazariyalaridan ancha oldinda edi deb ko'rsatadi. Fransuz arabshunos olimi Karra de Voo Farobiyning musiqa san'atidagi xizmatlarini takidlab, Farobiy yana buyuk musiqachi ham edi. Biz uning sharq musiqasi nazariyasi bo'yicha eng muhim asarlari uchun undan minnatdormiz deb yozgan edi. Yana u ayni vaqtda ham ijrochi musiqachi, ham bastakor edi. Uning qobilyatiga Sayfutdavlat qoyil qolgan edi. Darvish Mavlonlar hozirga qadar ham muallifi Farobiy deb hisoblanadigan qadimgi qo'shiqlarini kuylab yuradilar, - degan edi. XVII asrda Buxoroda yashagan Darvesh

Ali Changiyning Musiqa haqida risolasida XVI- XVII asrlardagi cholg'ular va sozandalar haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirgan. O'sha davrda, tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qobiz, g'ijjak cholg'ulari keng tarqalgan xisoblanadi. Sozandalar haqida esa, mashxur rubobchilar haqida xam so'z yuritiladi. Xususan buxorolik Shayx Shamsiy- Rabboniy moxir, rubob cholg'uchi mashxur sozanda sifatida tanilgan. Uning ijrosi tinglovchilarga shu qadar kuchli ta'sir qilganki xech bir kishini befarq qoldirmaydi. Rubobning oxangini eshitib, betakror ijrosidan xayratga tushgan odamlar chor atrofdan to'planaverishgan ekan. Lekin bu asarda keltirilgan keltirilgan rubob cholg'usi aynan hozirgi yoki boshqa bir ko'rinishdagi rubobi ekanligi haqida aniq ma'lumotlar uchramaydi va suratlarda xam ko'rsatilmagan. Darvesh Ali Changiyning o'zi xam Rebab (rubob osha davrda shunday nomlangan) chalishni bilgan, o'sha davrda xam rubobning torlari beshta bo'lib to'rttasi ipakdan bittasi esa kumush simli bo'lgan. Alisher Navoiyning asarlarida keltirilgan malumotlar ham bizga ko'p manbaalarni bilishimizga yordam beradi. Navoiyning ba'zi asarlarida sozlarning ayrim sado berish xususiyatlari ustalik bilan, obrazlik qilib chizib beriladi. Nay maftunkor sado beradi, G'ijjakning sadosi yigloqi, Tanburniki dilkash, Ud va Chang sozlari yurakni ezuvchi, Rubob yolvoruvchi, Qobiz roxatbaxsh, Qonun bilan chagonaning sadosi esa faryod, fig'onga o'xshash yangraydi deyilgan. Musiqa sa'natining boy ma'naviy jihatlari badiiy adabiyot namoyondalarini ham befar qoldirmagan. Musiqa sehri, cholg'ulardan taralgan sirli ohanglar Sharq badiiy proza va mumtoz she'riyat, yani badiiy adabiyotda o'ziga xos ifodasini topadi. Bular benazir cholg'u sozlarining nomlanishi, o'z davrining mashxur ijodiyot namunalari, bastakor, sozanda va honandalar ijodi, xalq musiqa ijodiyoti va an'alarida korinadi. O'rta asrlarda musiqiy jarayonga ko'proq ahamiyat bergan adabiyot namoyondalari biri Firdavsiyning „Shohnoma asarida yozadi:

Yig'ildi akobir, cholg'usi, raqqos,  
Podsho shodligidan sochar dur, olmos.  
Chiqar avjiga nay, childirma sasi,  
Chirillab aylana qizlar galasi.  
Ulug'lar shaniga qadah paydar-pay,  
Sahargacha tinmas tanbur, rubob, nay.

Keyinchalik rubob ko'pgina sharq xalqlari musiqa ijodida qo'llanilib, rivojlanib, o'zgarib bordi. Rubob cho'lgusining turli xil nusxalari Arab mamlakatlarida Xitoyning Qashgar mahallagohida, Hindiston, Pokiston, Afgoniston hamda O'rta Osiyoning ko'pgina mahallagohlarida, Tog'li Badaxshon Avtanom viloyatida musiqa ijrochiligida qo'llanilmoqda. Nomalum risolada namoyon bo'lishicha goyo Rubob Muhammad Xorazmshox davrida yaralganligi yozilgan. Lekin bu ma'lumot to'g'risida Abdurauf Fitrat (1886-1938) o'z kitobida quydagi fikrni bildiradi. Bu yigirmanchi yillarda Hindistondan keltirilgan So'rang nomli bir cholg'uning rubobga

juda o'xshashligi meni shoshirgan edi, songra qolimga tushgan Darvesh Ali Changiyning Risolaiy musiqiy asarida bu cholg'uning Balxda yasalgani, Muhammad Xorazmshox zamonida Xorazmda rivoj topgani ko'rsatilgan ( A. Fitrat O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi).Lekin bu berilgan ma'lumot hozirgi kundagi mavjud rubob emas, balki Afg'on rubobi yoki badaxshon rubobiga o'xshash rubob cholg'usi bo'lishi mumkin.

### **Results and Discussions:**

Musiqqa sa'nati davrlar o'sha rivojlanib, sozlar xam zamon talablariga mos ravishda rivojlanib borgan.Shu yili Usta Usmon Muhammadjon Mirzayevga o'zi olib kelgan Uygur rubobidan aynan nusxa olib bir necha rubob tayyorlaydi va birinchi tayyorlangan rubob Muhammadjon Mirzayevga taqdim etiladi. Ma'lumki bu turdagi rubob aynan tanbur singari bo'lib, bunda pardalar bog'langan, sozlanishi ham aynan tanbur singari bo'lgan. 1937-yili O'zbekiston poytaxti bo'lgan Moskvada O'zbek san'ati va adabiyoti dekadasi o'tkazildi. Dekadada Toxtasin Jalilov raxbarligidagi O'zbek xalq cholg'u asboblari ansambli xam qatnashdi. Bu davrda ansambldagi rubobchi-sozandalar soni xam birmuncha ko'paygan edi. M.Mirzayev, T.Jumayev, E.Shukurillayev, Mamatoxun Yusupov kabi sozandalar dekadada rubobchi sozanda sifatida ishtirok etishdi. Dekada bo'lib o'tgandan so'ng o'zbek cholg'u asboblaridagi ba'zi kamchiliklar hisobga olinib, A.I.Petrosians raxbarligida takomillashtirildi. Aynan shu yillarda Rubob cholg'usi Xalq cholg'ulari qatoriga qoshildi. Rubobning prima, alt, metso-soprano turlari yaratiladi. Natijada rubob cholg'usida o'zbek musiqasi bilan birga, boshqa xalqlarning kuylari va kompozitor asalarini ijro etish imkoniyati paydo bo'lgan.Hozirgi kunda o'zbek (Toshkent) rubobining tuzilishi quydagicha; Rubob sozi asosan ikki qisimdan kosaxona va dastadan iborat, rubobning bosh qismi uzun dastaga birlashtirilgan va quloqlar joylashtirilgan. Bosh qismining dastasi bilan birikkan joyida shayton xarrak joylashgan va uzun dastalariga yigirma to'rttadan yigirma oltitagacha bo'lgan kerakli metallardan moslab tayyorlangan pardalar joylashgan. Tovushqarori xiromatik tarzda 0,5 tondan qilib joylashtirilgan va tartib bo'yicha bosh qismidan kosa qismiga qarab sanaladi. Kosaxona va pastki dastasi birlashgan joyida rubobni bezab turuvchi shoxsimon yogoch ishlangan, kosaxonasi o'yilgan bo'lib, ustiga baliq yoki buzoqning yurak pardasi tortilib qoplanadi. Parda ustida simlarni joylashtirish uchun xarrak qoyilgan, kosaxonaning orqa qismida ilmoqlar joylashtirilgan va bu ilmoqlarga quloq tomon ikkita jub po'lat tor va bitta ichak torlar tortiladi. Torlarning orasi juda tor yoki keng bo'lishi mumkin emas, chunki torlar o'zaro juda yaqin bo'lsa, barmoqlar bilan bosilganda bir-biriga tegib qoladi va aksincha torlar o'zaro masofasi meyordan kengroq bo'lsa, torlar barmoqlar ostidan chiqib ketishi mumkin. Shunig uchun juft torlarning o'zaro masofasi 3yoki 4 mm bo'lsa, birinchi, ikkinchi va uchinchi torlarning oralig'i 10-12 mm bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.Birinchi juft (Iya) torlarning xar biri 0,23-0,24 mm, ikkinchi juft (mi) torlar, 0,25-0,28 mm gacha bo'ladi. Shuni aytish

ham joizki bazi bir ruboblarda bu o'lchovlar biroz o'zgarishi mumkin, yani ijrochining va cholg'u sozining imkoniyatiga qarab. Agar similar qalinroq bo'lsa, ovoz baland eshitiladi, ammo ijro qilishga biroz qiyinchilik tug'diradi. Simni barmoqlar bilan bosganda, sim qalinligi evaziga qo'lga ko'proq kuch keladi va nolalar ham chiqishi qiyin bo'ladi. Bunday similar ko'proq chet el kompozitorlari asarlarini ijro qilishga ko'proq mos keladi, sababi bunday asarlarda nola va qochirimlar deyarli yoq. Agar sim yumshoqroq bo'lsa, ovoz pastroq bo'ladi, lekin asar ijro qilinganda mayin va barmoqlarga kuch kelmay nola qochirimlar qilishga qulaylik tug'diradi. Bunday simlar asosan milliy kuylarimizni ijro qilishda qo'l keladi, shunki milliy kuy qo'shiqlarimiz nolalarga juda boydir. Rubobning asosiy materiallari tut, o'rik, yong'oq, chinor va boshqa shunga o'xshash materiallardan foydalaniladi. Xarrakning balandligi asosan cho'lguning sadolanishi va pardalarning aniq sozlanishiga muvofiq xolda tayyorlanadi. Bunda torlar dastadan juda ham baland yoki past bo'lmay chap qo'l bilan torlarni pardaga bosish uchun qulay darajada bo'lgani ma'qul. Chunki xarrak baland bo'lsa juda noqulay, past bo'lsa ovozning sifati o'zgarib ketishiga sabab bo'ladi. Shuning aytish ham joizki, xarrakning pardani qulay joyiga joylashtirish ham katta ahamiyatga ega.

Sozlash jarayonida har bir torlarni bir biriga ham sozligini tekshirish zarur. Aks xolda cho'lg'u sozi to'liq ijro xolatiga kelmaydi. An'anaviy musiqa ijrochiligi o'ziga xos milliy bezaklarni va ularni sharqona talqini uchun mos uslublarini taqazo etadi. Bu faqat barmoqlar xarakati bilan jonlantiriladi. An'anaviy ijrochilikda bu omillarni mukammal talqini uchun bir qator ishlarga rioya qilishni talab etadi.

Birinchidan, bu rubob sozi bo'lib uning ijro uslubi boshqa sozlarga qaraganda birmuncha farq qiladi.

Ikkinchidan, barmoqlar xarakati; rubob sozining eng muhim omillaridan hisoblanib boshqa sozlarda ham barmoqlar eng muxim vazifani bajaradi, lekin rubob cholg'usida nola qochirimlarni maromida chiqarish uchun barmoqlar pardalarni mukammal darajada seziski kerak. Misol uchun, maqomning yetakchi sozlaridan bo'lmish tanbur cholg'usini oladigon bo'lsak, tanbur sozida, bitta pardada ko'p nola qochirimlar qilish qiyinchilik tug'dirmaydi, rubobda sozida esa aksincha, nolalarni barmoqlar yordamida turli xil pardalarni ishlatgan holda hosil qilamiz. Shuning rubob cholg'usida barmoqlar xarakati birmuncha muxim rol o'ynaydi.

Uchinchidan, ong qo'l zarblari; barmoqlar bilan zarblar bir-birini to'ldirib, asarni yanada boyituvchi va rubob sozini eng muxim ommillari hisoblanadi. Zarblar qanchalik ijobiy tarzda urilib, barmoqlar bilan bir maromda faol bo'lsa bu profeesionallikdan dalolat beradi. An'anaviy rubob ijrochiligida asosan, 1-2 va 3-barmoqlar turli xildagi nola va qochirimlarni tolaqonli ifoda etishda qollaniladi. 3-va 4-barmoqlar ko'proq forshlagsifat bezaklarni ijro etishda qulaydir. Rubob cholg'usida xalq kuylari, bastakorlar asarlari, maqom shobalarini yakka ravishda ijro etilganida,

aynan talab etilgan pardadan emas, balki rubobga xos va soziga mos bo'lgan pardadan boshlab ijro etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Rubob soziga moslab yozilgan kuylar asosan birinchi sanalmish lya torida ko'proq ijro etiladi. Ushbu torida ikki oktavagacha bo'lgan kuylarni ijro etish mumkin, lekin maqom kuy va ashulalari orasida ikki oktava va undan ortiqroq bo'lgan musiqiy namunalari mavjud. Shu bois boshqa torlarda ham imkoniyat darajasida kuy jummlarini boshlash mumkin.

### **Conclusion:**

Shuni xam aytish joizki, ayrim xollarda ijro etilayotgan kuylarga xarakterli bo'lgan bezaklarni xosil qilishda, chap qo'l barmoqlari pardalardagi joylashuvi o'zgarib turishi tabiiydir, chunki ananaviy ijro jarayoni shuni taqozo etadi.

### **References:**

1. O'.Toshmatov,S.Tenatov ("Ko'hna cholg'ular taraxi).
2. Al-Farobiy (Musiqiy cholg'u tarixi)
3. Sh.Raximov,A.Lutfullayev (Cholg'ushunoslik).
4. I.I.Mamajonov Afg'on rubob tarixi-Zenado maqolasi).Intemet ma'lumoti elektron manzil - [www.-pedagoglar.uz](http://www.-pedagoglar.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)